

Телекоммуникацияда бошқарув тизимларининг аппарат ва дастурий таъминоти” кафедраси

**GLOBAL AXBOROTLASHUV SHAROITIDA HARBIY XIZMATCHILAR AXBOROT
BILIMDONLIGINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI**

*Toshkent oliv umumqo ‘shin qo ‘mondonlik bilim yurti
Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o ‘qituvchisi
Qurolli kuchlar xizmatchisi M.X.Madumarova*

Annotatsiya: Maqolada global axborotlashuv sharoitida harbiy xizmatchilarning axborot bilimdonligini shakllantirish masalalariga oid mulohazalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: global axborotlashuv, axborot bilimdonligi, axborot urushi, strategik resurs, axborot xavfsizligi, axborot muhiti.

Аннотация: В статье рассматриваются мнения по формированию информационной компетентности военнослужащих в условиях глобальной информатизации.

Ключевые слова: глобальная информатизация, информационная компетентность, информационная война, стратегический ресурс, информационная безопасность, информационная среда.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti, I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 24 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigida: “... dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi zamonda, xalqimizning ma’naviy qadriyatlari, madaniyati va urfodatlariga mutlaqo zid bo‘lgan, yot va buzg‘unchi g‘oyalarni jamiyatimiz hayotiga turli yo‘llar bilan singdirishga qaratilgan urinishlar kuchaygan, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini egallash uchun keskin kurash ketayotgan bir sharoitda, harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatgacha bo‘lgan yoshdagagi farzandlarimizni tarbiyalash va ularning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi ishlarning roli va o‘rnii tobora ortib bormoqda”¹, - degan fikrga alohida urg‘u berib o‘tganlar.

Darhaqiqat, bugungi davrda respublikamizda olib borilayotgan islohotlar taqdirida barcha sohalarda, shu jumladan, harbiy sohada ham yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi tadbirlarning roli benihoya kattadir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ertangi kun yangicha, zamonaviy bilinga ega, yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi. Shu maqsadda xalqimizning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlari, madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va zamonaviy texnologiyalar asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va uning jadal sur’atlar bilan jamiyat hayotiga tadbiq etilayotgani barcha sohalarda erishayotgan yutuqlarimiz va egallab borayotgan marralarimizda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Xususan, Qurolli Kuchlarimiz saflarida yuqori intellektual bilim va malakaga ega ofitserlar, mustahkam, metin irodaga ega serjantlar, bilim cho‘qqilarini egallashga astoydil bel bog‘lagan kursantlar, kuchli, sog‘lom, baquvvat, Vatan himoyasi uchun oldiga qo‘yilgan maqsad sari olg‘a intiluvchan askarlarning xizmat qilayotganliklarini,

¹ Президент И.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 24 йиллиги муносабати билан ватан химоячиларига йўллаган байрам табриги //Ватанпарвар газетаси 2016 йил 14-январь 3-сон, 2-3-бетлар

hech mubolag‘asiz, respublikamiz harbiy salohiyatining juda tez fursatlar ichida yuqori nufuzga erishayotganining asosiy omili sifatida e'tirof etish mumkin.

Davlatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri axborot sohasini isloh qilishdan iborat. Keyingi o‘n yillar davomida axborot texnologiyalari ta’lim sohasida, harbiy yo‘nalishda, ishlab chiqarish, xalq xo‘jaligi va inson faoliyatining turli jabhalarida keng qo‘llanilmoqda. Axborotlashtirish jarayoni ilm va fan taraqqiyotida, jumladan, pedagogikada dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lib ulgurdi.

Odatda, olimlar o‘z tadqiqotlarida axborotlashuv sharoitidagi o‘rganish ob’ektlarining ijobiy jihatlariga ko‘proq to‘xtaladilar, ko‘p hollarda salbiy taraflariga yetarlicha e’tibor qaratilmaydi. Axborot tushunchasidan foydalanishda unga ma’lum ijtimoiy tizimga ta’sir qiluvchi ob’ekt sifatida qaraladi.

Biroq, axborot faqat ob’ekt sifatidagina emas, balki maxsus ta’sir etish vositasi sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, bu global axborot maydonida yaqqol kuzatiladi, unda axborot siyosiy, iqtisodiy va boshqa kommunikatsiyalar uchun asosiy qurol sifatida xizmat qiladi. Yer sharining turli hududlarida yetakchi davlatlar vakillari maxsus operatsiyalarni o‘tkazish orqali axborot urushini olib bormoqdalar. Shuning uchun axborot xavfsizligini ta’minalash bugungi davrning eng yuqori dolzarblik kasb etgan masalalari orasida birinchi o‘rinni egallaydi.

Bu borada harbiy tadqiqotchi polkovnik S.Ustyugov quyidagi mulohazalarni keltirib o‘tgan: “Harbiy tadqiqotchilarning jahon arenasida siyosiy yutuqlarga erishish vositalari va usullarining rivojlanishini kuzatishlari natijasida AQSh, Xitoy, Angliya, Germaniya, Kanada, Italiya kabi davlatlarning axborot muhiti xuddi neft, gaz, oltin va boshqa foydali qazilmalar kabi muhim ahamiyatga ega strategik resurs statusini olganligi aniqlandi. Bu esa axborot xavfsizligini ta’minalash ham yuqori darajadagi muhim va dolzarb masala ekanligini anglatadi”².

Yuqoridagi davlatlarda bugungi kunda davlat ahamiyatiga molik axborot siyosati olib borilmoqda, davlat axborot xavfsizligini ta’minalash, shuningdek, axborot operatsiyalarini o‘tkazishga mas’ul maxsus institutlar tuzilgan. Ushbu tuzilmalarda axborot qurollari va ulardan foydalanish tamoyillari ishlab chiqiladi. Ba’zi ekspertlar bunday qurollarni ommaviy qirg‘in quollarining ta’siri bilan tenglashtiradilar. Aslida, axborot qurollari ommaviy qirg‘in quollaridan ham dahshatliroq oqibatlarni keltirib chiqarishga qodir ekanligini so‘nggi yillar tarixidagi Ukraina Respublikasida sodir bo‘lgan mudhish voqealar, terrorchi g‘alamislar makoniga aylanib borayotgan Suriya davlatidagi hodisalar so‘zsiz isbotlanmoqda.

Axborot urushi va axborot sohasidagi harbiy operatsiyalarni olib borish jihatidan harbiy munosabatlarda AQSh hukumati o‘zining Rossiya va Xitoy davlatlarining hamkorlikdagi kuch-qudratidan ham ustun ekanligini ta’kidlaydi³. Hozirda AQShda shu sohaga mos harbiy mutaxassislarni tayyorlashga mo‘ljallangan dunyodagi eng mukammal dastur ishlab chiqilgan, u Fort Bregg maxsus operatsiyalar maktabi qoshidagi J.Kennedi markazida amalga oshiriladi.

²России нужен информационный Генштаб [Электронный ресурс]: // Электронное информационно-аналитическое издание «Новые Ведомости» URL: <http://nvdaily.ru/info/26590.html>

³Барак Обаманинг Вест-Пойнт ҳарбий академиясида сўзлаган нутқи [Электрон ресурс]: URL: <http://www.voltairenet.org/article183371.html>

Axborot tajovuzi - axborot urushini olib borish texnologiyasidir. Rus tadqiqotchisi Ye.S.Yermakovaning ta'kidlashicha, axborot tajovuzi deganda, "axborotdan jamiyat birligining, uning barqaror, jumladan, hissiy holatining buzilishiga, aholining maqsadlari, qarashlari va dunyoqarashlariga putur yetkazish, shuningdek, shaxslararo, etnik, millatlararo nizolarni avj oldirishga undovchi vosita sifatida foydalanish"⁴ tushuniladi. Masalan, Rossiya davlatining axborot operatsiyalaridagi mag'lubiyati Gruziya va Janubiy Osetiya qurolli nizolarida o'z ifodasini topgan. Bunday axborot tajovuzlarini yevropa Ittifoqi va Shimoliy Atlantika Harbiy Bloki davlatlari tomonidan Rossiyaga qarshi uyushtirilgan so'nggi davrdagi Ukraina voqealarida ham kuzatish mumkin. Mag'lubiyat va axborot tajovuzining ta'siri axborot muhitining fuqarolar tomonidan davlat miqyosida muhim va ahamiyatli ekanligini tushunib yetmaslik bilan bog'liq.

Axborot muhiti, axborot tajovuzi va tahdidlarining yetarlicha baholanmasligi ilmiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda ham kuzatiladi. Bu yo'nalishda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, asosan, olimlar axborotlashtirish va uni faoliyatning u yoki bu sohasiga tadbiqu etishni tadqiqot ob'ekti sifatida tanlaydilar. Axborotlashtirishning ijobiy oqibatlarini (avtomatlashtirish vositalari orqali boshqarish tizimlari, ta'lim darajalari samaradorligini oshirish) ko'rib chiqish orqali yangi axborot texnologiyalarini barcha sohada uning ayrim negativ jihatlarini e'tiborga olmagan holda amalda qo'llashni tavsiya etadilar. Yuqorida fikrlarning barchasi global axborotlashuv jarayonining oqibatlarini baholash, axborot muhitidagi ijtimoiy haqiqatga aylanayotgan jarayonlarni taqqoslash, ularning jamiyat institutlari, ta'lim, xususan, harbiy ta'lim bilan aloqasini tushunishga undaydi.

Harbiy ta'lim va harbiy kadrlarni tayyorlash tizimida Qurolli Kuchlarimizning bugungi vazifalari va global axborotlashuv sharoitida davlat manfaatlariga bo'lgan tahdidlarni e'tiborga olgan tub o'zgarishlar olib borilmoqda. Tezkor rivojlanib borayotgan davr bilan hamqadam bo'lish uchun boshqa sohalar kabi harbiy pedagogik faoliyatda ham axborot texnologiyalaridan foydalanishga keng yo'l ochib berilgan. Harbiy sohada mutaxassislarni tayyorlash tizimini o'zgartirishga bo'lgan ehtiyojlar harbiy ta'limning pedagogik nazariyasi holatini axborot muhiti, xususan, davlatning axborot xavfsizligi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar bilan koordinatsiyasini anglatadi.

Bu borada Qurolli Kuchlarimiz tarkibidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari, serjantlar tayyorlash maktablarida ham talay ishlar va tadbirlar jadal olib borilmoqda. Keyingi yillarda oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish istagida hujjat topshirgan abituriyentlarning axborot texnologiyalari va informatika bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazilib, tanlovlar natijasida axborot savodxonligi yuqori bo'lgan abituriyentlar kursantlikka qabul qilinmoqda.

O'quv-tarbiya jarayonida ham axborot texnologiyalari fani bo'yicha o'tkaziladigan barcha turdag'i mashg'ulotlar davomida kursantlarning matnli hujjatlarni qayta ishslash, elektron jadvalda hisoblashlarni bajarish, taqdimotlar yaratish, audio va video ma'lumotlarni kesib olish va qayta ishslash, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlarida ishslash, interaktiv kurslar yaratish, grafik dasturlarda tasvirlar yaratish va

⁴Информационная война как атрибут информационного общества: активизация медиафункции насилия над сознанием. «Гуманитарные науки» – 2012год, № 2.

fototasvirlarni qayta ishslash, lokal va global kompyuter tarmoqlarida axborotlarni olish va uzatish, axborotlarga bo‘lgan tahdidlarning turlari, axborot xavfsizligini ta‘minlash usul va vositalariga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarining tezkor shakllanib borayotgani kuzatilmoque. Jumladan, harbiy xizmatchilar, kursantlar va malaka oshirish fakulteti tinglovchilarining axborot bilimdonligini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar misolida Toshkent oliy umumqo‘sish qo‘mondonlik bilim yurtida yaratilgan lokal tarmoq va veb-saytni ko‘rish mumkin. Elektron pochta orqali ma'lumotlar almashish, xabarlar, bildirgi, e'lonlar yuborish, elektron kutubxona imkoniyatlaridan keng foydalanish, bilim yurti tarixi va hozirgi hayotiga oid videolavhalar bilan tanishish, kafedralar va fakultet, xizmat bo‘linmalari, kursantlar batalonlari hayotiga doir yangi ma'lumotlarni kiritish orqali harbiy xizmatchilarning axborot bilimdonligi darajasi yaqqol namoyon bo‘ladi va uni baholash mezonlarini aniqlash osonlashadi.

Shunga qaramay, global axborotlashuv jarayonida harbiy ta'lim muassasalarida uchrashi mumkin bo‘lgan ba'zi muammolarni ham ta'kidlash joiz. Harbiy yo‘nalishdagi ta'lim jarayonida tezkor darajada mantiqiy fikr yuritmaslik, muhim vazifalarni anglab yetishda uchraydigan noaniqliklar, fanlararo aloqa va jamiyat bilan uzviylikning yo‘qligi kuzatiladi.

Shunday qilib, dunyo hamjamiyatida sodir bo‘layotgan global axborotlashuv jarayoni va uning oqibatlarini hisobga olgan holda, harbiy faoliyat va harbiy xizmatchilarning axborot bilimdonligi mezonlarini chuqur o‘rganib chiqish darkor. Bu esa yuqori tayyorgarlikka ega bo‘lgan, zamonaviy bilim, malaka va ko‘nikmalarini qo‘llagan holda o‘z oldiga qo‘yilgan jangovar vazifalarni so‘zsiz bajarishga qodir harbiy mutaxassislarni shakllantirish imkonini beradi. Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining axborot bilimdonligini shakllantirish jarayonining ahamiyati va rolini baholash harbiy kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish shartlaridan biridir.

Pedagogikaning zamonaviy rivojlanish bosqichida “axborot bilimdonligi” tushunchasi juda keng ma’no kasb etadi. Axborot bilimdonligi deganda:

insonning axborot texnologiyalari va manbalaridan foydalanib, axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun mustaqil faoliyat yurita olishi⁵;

axborot texnologiyalari sohasidagi nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va ma'lum shaxsiy sifatlarning takomillashuvi asosidagi murakkab individual-psixologik ta'lim⁶;

axborot texnologiyalari sohasidagi yuqori nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar, ularni oliy harbiy ta'limning asosiy ta'lim dasturini o‘zlashtirish jarayonida qo‘llay olish malakasi, kasbiy faoliyatda kompyuter texnologiyalaridan foydalana olish bilan xarakterlanuvchi sifat⁷ tushuniladi.

Keltirilgan tushunchalardagi umumiyy jihatlar shundaki, “axborot bilimdonligi” tushunchasi asosida amaliy faoliyatda axborot texnologiyalarini qo‘llash yoki undan foydalanishdagi shaxsning u yoki bu psixologik sifatlari va qobiliyatları yotadi.

⁵Томаков М.В., Курочкин В.А., Коренева А.В. «Интеграция Интернет-ресурсов в процесс Формирования информационной компетентности инженера: решения и проблемы». [Электрон ресурс]: URL: http://swsu.ru/poisk/doc/integraciya_internetresursov.doc

⁶Зайцева О.Б. «Формирование информационной компетентности будущих учителей средствами инновационных технологий». Автографат – Брянск, 2002год.

⁷Грибан О.Н. «Формирование информационной компетентности студентов исторического факультета педагогического вуза». Автографат – Санкт-Петербург, 2012год.

Global axborotlashuv sharoitida, yuqoridagi sifatlardan tashqari, harbiy ta'lim muassasasi kursantida kutilmagan, shubhali, hatto jamiyat hayoti uchun xavf tug'diruvchi axborot ta'siri, uning tahdidlariga har qanday vaziyatda ham qarshi tura olishga tayyorgarlikni shakllantirish zarur bo'ladi. Shu jihatdan, "axborot bilimdonligi" tushunchasining yanada aniqroq ifodalanishi Ye.V.Petrovaning quyidagi fikrlarida keltirilgan: "insonning axborot uyushmalaridagi haqiqatlarni anglash va ularning imkoniyatlaridan foydalana olish, axborot uyushmalarida har tomonlama moslasha olish va o'z mahoratini namoyish qila olish qobiliyati"⁸.

Demak, axborot tajovuzlari, axborot urushlaridan himoyalanishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi muqarrar. Bugungi kunda dunyo hamjamiatining deyarli barcha davlatlarida axborot sohasining tadrijiy rivojlanishi va turli xil taziqlar mavjud bo'lgan sharoitlarda undan to'g'ri va samarali foydalananish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amaliy faoliyat jiddiy kuchaytirilgan. Hozirda axborot-kommunikatsion texnologiyalar kirib bormagan, uning ta'sir doirasini chetlab o'tgan inson faoliyati sohasini topish amrimahol. Shuning uchun XXIasr "axborot texnologiyalari asri" deb bejiz nomlanmagan.

Axborotlashuv jarayonida harbiy xizmatchilarning axborot bilimdonligini oshirish masalasida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish orqali samarali natijalarga erishishni taxmin qilish mumkin:

1. Global axborotlashuv jarayonining ijobiy va salbiy oqibatlarini chuqur o'rghanish, ularning jamiyat institutlari bilan, jumladan, ta'lim tizimi, xususan, harbiy ta'limdagi aloqasini tushunib yetish.
2. Harbiy mutaxassislikka ega bo'lgan har bir shaxsning (ofitser, serjant, kursant, askar) axborot bilimdonligi darajasining mohiyati, roli, o'rni va ahamiyatini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslash.
3. Shaxsning, shu jumladan, harbiy xizmatchining ham axborot bilimdonligi axborot manbalaridan samarali va oqilona foydalana bilish ko'nikmasiga bog'liqligini singdirish.
4. Zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda yechilishi lozim bo'lgan, Qurolli Kuchlarimiz faoliyatining asosini tashkil etuvchi masalalar ko'lamini alohida inobatga olish muhimligini anglash.
5. Axborot bilimdonligining axborot faoliyati tushunchasi bilan o'zaro aloqasini aniqlash, chunki axborot faoliyati axborotlashgan jamiyat faoliyatining asosiy ko'rinishi, shuningdek, axborot texnologiyalarini o'zlashtirish va ulardan foydalananishning asosi hisoblanadi.
6. Qurolli Kuchlar tizimidagi ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish va xizmat doirasidagi turli xil jangovar masalalarni yechishga qodir mutaxassislarini tayyorlashning ustuvor vositalaridan sanalgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalananish natijalarini tahlil qilish va istiqboldagi vazifalarni aniq belgilash.
7. Axborot-hisoblash vositalarini o'quv-jangovar masalalarni yechish jarayonida kursantlarning samarali faoliyatini kuchaytirishga tadbiq qilish masalalarini ko'rib chiqish.

⁸Петрова Е.В. «Информационная компетентность в образовании как залог успешной адаптации человека в информационном обществе» // «Информационное общество», 2012 год №2, стр. 37-43.

8. Global axborotlashuv shartlarini, ya'ni hozirgi axborotlashgan jamiyat talablarini e'tiborga olgan holda, harbiy xizmatchilarda axborot bilimdonligini shakllantirishning asosiy sabablarini o'chib berish.

9. Global axborotlashuv sharoitida xizmatga oid jangovar vazifalarni bajarishda kursantlarning axborot bilimdonligini shakllantirish bo'yicha puxta va samarali o'qitish metodlarini ishlab chiqish va ta'lif jarayoniga tadbiq etish.

Xulosa qilish mumkinki, global axborotlashuv sharoitida harbiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, mazmuni va mohiyati ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan hamohang bo'lishi, buning uchun o'qitish tizimida qo'llanilayotgan metodlar takomillashtirilishi zarur, chunki davlatimiz sarhadlarining daxlsizligi, yosh avlodning porloq kelajagi bo'lg'usi ofitserlarning bilim darajasi va kasbiy tayyorgarligiga bevosita bog'liq.

Abstract: This article is view analyzes of forming informational awareness of military servicemen on condition of global informatization.

Keywords: global informatization, informational awareness, information war, strategic resource, information safety, information environment.